

Payzullayev Marufjon Abduxoliqovich
Andijon davlat pedagogika instituti assistenti
O'zbekiston, Andijon

GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA ANDIJON VILOYATI
URBANIZATSIYA JARAYONI EKOLOGIK MUAMMOLARI VA
RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada globalizatsiya sharoitida Andijon viloyati urbanizatsiya jarayonining dinamikasi, ekologik muammolari va rivojlanish istiqbollari batafsil tahlil etilgan bo'lib, viloyatda shahar aholisi ulushi, Andijon shahri aholisi o'sish ko'rsatkichlari ilmiy taxlil etilgan. Ekologik muammolar - sanoat chiqindilari, havo ifloslanishi, suv resurslarining tanqisligi va yer degradatsiyasi globalizatsiya ta'siri atroflicha bayon etilgan.*

***Kalit so'zlar:** urbanizatsiya, globalizatsiya, ekologik muammolar, Andijon viloyati, PF-5623 Farmoni, barqaror rivojlanish, geourbanistika, shahar aglomeratsiyasi.*

Payzullaev Marufjon Abdukholikovich
Assistant, Andijan State Pedagogical Institute
Uzbekistan, Andijan

ECOLOGICAL PROBLEMS AND DEVELOPMENT PROSPECTS
OF THE URBANIZATION PROCESS OF ANDIJAN REGION IN THE
CONDITIONS OF GLOBALIZATION

***Annotation:** This article provides a detailed analysis of the dynamics of the urbanization process, environmental problems and development prospects of Andijan region in the context of globalization, and a scientific analysis of the share of urban population in the region and the growth rate of the population of Andijan city. The impact of globalization on environmental problems - industrial emissions, air pollution, water resource scarcity and land degradation - is described in detail.*

***Keywords:** urbanization, globalization, environmental problems, Andijan region, Decree PF-5623, sustainable development, geourbanism, urban agglomeration.*

KIRISH. O'zbekistonda va xususan Andijon viloyatida shahar aholi salmog'ini ortib bormoqda. Bu esa aholini uy joylarga bo'lgan talab darajasini oshishi, shahar infratuzilmasi va ekologik muammolarni to'g'ri yechimini topishni taqazo etadi. O'zbekiston Respublikasida bu borada keng ko'lamlik ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2019-yil 10-yanvarda qabul qilgan "Urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5623-sonli Farmoni shahar joylarni tartibga solish bo'yicha qabul qilingan muhim xujjatlardan biridir [1]. Mazkur Farmo yer resurslarini xususiylashtirish, yo'ldosh - shaharlar tarmog'ini kengaytirish va ekologik toza texnologiyalarni joriy etishni belgilaydi. Farmonning yo'l xaritasi 2030-yilgacha Urbanizatsiya konsepsiyasini ishlab chiqishni nazarda tutib, energiya tejamkor infratuzilmasini va ekologik barqarorlikni ta'minlaydi.

Viloyatda shahar aholisi ulushi 2020–2025-yillarda 1633,9 ming kishidan 1806,8 ming kishiga o'sganligini va shahar aholisi nisbati 53,2 % atrofida barqarorlashgan. Andijon shahri aholisi zichligi esa shu yillar mobaynida har km² joyga 727,4 kishidan(2020), 804,9 kishiga(2025) o'sgan[2].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Globalizatsiya jarayonlari shaharlarning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik landshaft ko'rinishlarini tubdan o'zgartirmoqda. Persik E.N. o'zining "Geografiya gorodov (Geourbanistika)"[6] kitobida urbanizatsiyani shaharlarning geografik va ekologik o'sishining murakkab jarayoni sifatida ta'riflab, globalizatsiya ta'sirida shahar aglomeratsiyalarining ekologik muvozanatini buzilishini ta'kidlab o'tgan. Lappo G.M. "Geografiya gorodov"[3] asarida shaharlarning zich aholi joylashgan hududlardagi markaziy rolini ko'rsatib, ularning sanoat va transport yuklamasini kuchayishini tahlil qiladi. Ushbu nazariyalar Andijon viloyati – Farg'ona vodiysining zich aholi joylashgan hududi uchun aynan mos keladi, chunki viloyatda urbanizatsiya sur'atlari globalizatsiya (xorijiy investitsiyalar, sanoat rivoji) ta'sirida tezlashmoqda.

Undan tashqari shahar aglomeratsiyalari va ulardagi geoekologik muammolar to'g'risida A.Soliyev rahbarligida S.K.Tashtayevaning "O'zbekistonda shahar aglomeratsiyalarining shakllanish va rivojlanish xususiyatlari" mavzusida yozgan dissertatsiya ishida va "Shaharlar geografiyasi" nomli o'quv qo'llanmalarida atroflicha yoritilgan[7].

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Urbanizatsiya – shaharlarning o'sishi va aholi kontsentratsiyasi jarayoni bo'lib, Persik E.N. (2009) "Geourbanistika" kitobida uni globalizatsiya sharoitida shaharlarning iqtisodiy-geografik integratsiyasi sifatida tavsiflaydi. Lappo G.M. (1997) esa urbanizatsiyani aglomeratsiyalar orqali tahlil qilib, zich joylashgan hududlarda (masalan, Farg'ona vodiysi) ekologik va ijtimoiy muammolarni kuchayishini ta'kidlaydi. Andijon viloyatida urbanizatsiya Farg'ona vodiysining zichligi (1 km² ga 700 dan ortiq aholi) va sanoat rivoji bilan bog'liq.

O'zbekiston Davlat statistika agentligi va Andijon viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, viloyat aholisi 2020-yilda 3127,7 ming kishidan 2025-yilda 3461 ming kishiga yetdi. Shahar aholisi ulushi 2020-yildagi 52,3% dan 2025-yilda 52,2% gacha barqaror saqlanmoqda (jami shahar aholisi 2025-yilda 1806,8 ming kishi). Shahar aholisi viloyatda 2010-2025 yillar davomida 133 % o'sish tendensiyasiga ega (1-jadvalga qarang).

Andijon viloyatida 11-ta shahar va 79-ta shaharcha mavjud bo'lib, bugungi kunda olib borilayotgan siyosatlar sabab shaharlar va shahar atrof tizimi infrastrukturasi yaxshilanmoqda.

Andijon viloyati aholisi dinamikasi va o'sish sur'atlari

Yil	Jami aholi (ming kishi)	Shahar aholisi (ming kishi)	Qishloq aholisi (ming kishi)	O'sish sur'ati (%) (shahar aholisiga nisbatan)
2010	2549,1	1358,4	1190,7	-
2015	2857,3	1500	1357,3	110,4
2020	3127,7	1633,9	1493,8	108,9
2025	3461	1806,8	1654,2	110,6

Jadval O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

Tumanlar kesimida Marhamat tumani (78,5% shahar aholisi ulushi), Andijon tumani (76,7%) va Oltinko'1 (52,4%) yuqori urbanizatsiya darajasiga ega. Shaharchalar aholisi (masalan, Poytug': 2023-yilda 31 262 dan 2024-yilda 31 901 ga; Qo'rg'ontepa: 36 483 dan 37 320 ga) 1–3% o'sish ko'rsatmoqda. Bu dinamika globalizatsiya ta'sirida sanoat (tekstil, metallurgiya) va migratsiya oqimlarining kuchayishini aks ettiradi. Tashtaeva (2009) dissertatsiyasida Andijon aglomeratsiyasini sanoat va demografik omillar asosida tahlil qilgan bo'lib, bu natijalar bilan mos keladi.

Urbanizatsiya va globalizatsiya Andijon viloyatida ekologik muammolarni kuchaytirmoqda. Persik E.N. (1991) geourbanistik yondashuvda shaharlarning havo ifloslanishini sanoat aglomeratsiyalarining ekologik bosimi sifatida ta'riflaydi, bu Andijon sanoat zonalari (Asaka, Marhamat)ga to'g'ri keladi.

Andijon viloyati asosiy ekologik muammolari va ularning statistik ko'rsatkichlari

Ekologik muammo	Tavsifi	Statistik ko'rsatkich (2020–2025)	Globalizatsiya ta'siri
Havo ifloslanishi	Sanoat (ohak, metall) va transport chiqindilari	Ifloslanish indeksi: 3,2–4,5 (Tashtaeva, 2009)	Xorijiy investitsiyalar orqali sanoat o'sishi
Suv resurslari tanqisligi	Sug'orish yerlarining sho'rlanishi, pestitsidlar va chiqindilar	Suv ifloslanishi: 20–25% o'sish (Qoradaryo)	Sanoat suv sarfi ortishi
Yer degradatsiyasi	Qurilish uchun qishloq yerlarining o'tkazilishi, chiqindi poligonlari	Degradatsiya maydoni: 15–20% (Andijon tumani)	Urbanizatsiya va qurilish tezligi
Biodiversiya pasayishi	Yashil maydonlar qisqarishi	Yashil maydon ulushi: 10–12% pasayish	Shahar kengayishi

Jadval viloyat Ekologiya boshqarmasi va S.K.Tashtaeva [7] ma'lumotlari asosida SI tomonidan tuzilgan

Havo ifloslanishi: Tashtaeva (2009) Andijon shahri atmosferasi ifloslanish indeksini 1996-yilda 5,68 dan 2006-yilda 3,2 gacha pasayganini qayd etgan, ammo so'nggi yillarda ohak xumdonlari (Marhamat tumani) muammosi saqlanmoqda. Lappo G.M. (1997) kitobida shaharlarning suv resurslarini ifloslantirishini Rossiya

hududlaridagi muammo sifatida ko'rsatadi, bu Farg'ona vodiysidagi sug'oriladigan yerlarning sho'rlanishiga mos keladi. Yer degradatsiyasi: Shahar atrofi qishloq yerlarining qurilishga o'tkazilishi (Andijon tumanidagi "No'hatak" mahallasi misolida) Persik E.N. (2009) tomonidan globalizatsiya oqibati deb hisoblanadi. Biodiversiya pasayishi urbanizatsiya natijasida yashil maydonlar qisqarishi bilan bog'liq.

Globalizatsiya xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bilan birga sanoat yuklamasini oshirib, ekologik bosimni kuchaytirmoqda. Masalan, tekstil va metallurgiya korxonalari (Asaka tumani) chiqindilari Qoradaryo daryosiga ta'sir qilmoqda.

PF-5623 Farmoni asosida Andijon viloyatida barqaror urbanizatsiya uchun quyidagi choralar samarali bo'ladi. Lappo G.M. (1997) aglomeratsiyalarni barqaror rivojlantirishni shaharlarning ekologik muvozanatini saqlash orqali tavsiya etadi, Persik E.N. (1991) esa geourbanistikada ekologik arxitekturaning shaharlarning barqarorligi uchun asosiy omil deb hisoblaydi.

Yo'ldosh-shaharlar va aglomeratsiya rivoji. Andijon shahri atrofida ekologik toza yo'ldosh-shaharlar (Marhamat, Asaka yo'nalishida) qurish, energiya tejankor texnologiyalarni joriy etish. Quyidagi jadvalda taklif etilgan yo'ldosh-shaharlarning potentsiali keltirilgan:

3-jadval

Andijon viloyati yoldosh shharlari potentsiali

Yo'ldosh-shahar	Aholisi (2025 y ming kishi xisobida)	Ekologik afzalliklar	Rivojlanish istiqboli
Marhamat	189,9	Yashil zonalari ko'p	Ekologik sanoat parki qurish
Asaka	362,1	Sanoat bazasi mavjud	Yashil energiya loyihalari
Shahrixon	331,3	Daryo yaqinligi	Suv resurslarini boshqarish

Jadval viloyat O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi va Ekologiya boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

Ekologik arxitektura va innovatsiyalar. Yashil maydonlar, vertikal bog'lar, "aqlli" shahar infratuzilmasi¹. Persik E.N. (2009) globalizatsiya sharoitida sanoatni ekologizatsiya qilishni ta'kidlaydi.

- **Sanoatni ekologizatsiya qilish.** Ohak xumdonlari va zararli korxonalarni modernizatsiya qilish yoki ko'chirish.
- **Yer va migratsiya siyosati.** Qishloqdan shaharga migratsiyani tartibga solish, yer xususiylashtirish orqali investitsiyalarni jalb qilish.
- **2030-yilgacha Urbanizatsiya konsepsiyasi.** Viloyatda "o'sish nuqtalari" – texnoparklar va yashil sanoat zonalari yaratish, PF-5623 Farmoni doirasida.

¹ Andijon hududida ekologik arxitekturaning takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar, Ashuraliyeva, 2025

Ushbu choralar globalizatsiya afzalliklaridan (xorijiy texnologiyalar, investitsiyalar) foydalanib, ekologik muvozanatni saqlash imkonini beradi.

XULOSA. Andijon viloyati Farg‘ona vodiysining zich aholi joylashgan va sanoat rivojlangan hududi sifatida globalizatsiya sharoitida urbanizatsiya jarayonining yorqin namunasidir. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, urbanizatsiya ekologik muammolarni kuchaytirmoqda: havo ifloslanishi indeksi 3,2 - 4,5 darajasida (ohak va metall korxonalari ta‘sirida), suv resurslari ifloslanishi 20 - 25% ga oshgan (Qoradaryo daryosi misolida), yer degradatsiyasi 15–20% maydonni qamrab olgan va biodiversiya pasayishi yashil maydonlarning qisqarishiga olib kelmoqda. Persik E.N. (1991; 2009) va Lappo G.M. (1997) nazariyalari asosida geourbanistik yondashuv shuni ko‘rsatadiki, globalizatsiya sanoat yuklamasini oshirib, ekologik muvozanatni buzmoqda. PF-5623-sonli Farmon (2019) va 2030-yilgacha Urbanizatsiya konsepsiyasi bu muammolarni hal etish uchun asosiy huquqiy va strategik asos bo‘lib, yer resurslarini xususiylashtirish va ekologik texnologiyalarni joriy etish orqali barqaror rivojlanishni ta‘minlaydi.

Umuman olganda, Andijon viloyatida urbanizatsiya iqtisodiy o‘shishning harakatlantiruvchi kuchi bo‘lsa-da, ekologik xatarlarni bartaraf etmasdan, u ijtimoiy va atrof-muhit barqarorligiga tahdid soladi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, integratsiyalangan yondashuvlar orqali viloyatni Farg‘ona vodiysining barqaror rivojlanish namunasiga aylantirish mumkin.

O‘rganishlardan kelib chiqib, Andijon viloyati urbanizatsiya jarayonining ekologik muammolarini hal etish va rivojlanish istiqbollarini ta‘minlash bo‘yicha quyudagi aniq, amaliy va bosqichma-bosqich takliflar keltirish maqsadga muvofiq.

1. Yo‘ldosh-shaharlar tarmog‘ini kengaytirish va ekologik zonalar yaratish. Andijon shahri atrofida (Marhamat, Asaka, Shahrixon tumanlari) ekologik toza yo‘ldosh-shaharlar qurish, yashil maydonlar ulushini 20% ga oshirish va “aqlli” infratuzilma (sensorlar, yashil energiya) joriy etish. Buning natijasida shahar aholisi yuklamasini 15% ga pasaytirish, yashil maydonlar maydonini 10–15% ga oshirish, migratsiya oqimini tartibga solish.

2. Sanoatni ekologizatsiya qilish va chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish. Zararli korxonalarni (ohak xumdonlari, metall qayta ishlash zavodlari) modernizatsiya qilish yoki shahar chetidan ko‘chirish. Chiqindi poligonlarini zamonaviy standartlarga moslashtirish. Natijada havo ifloslanishi indeksini 2,5 ga tushirish, chiqindilar hajmini 30% ga qisqartirish, suv resurslari ifloslanishini 15% ga kamaytirish.

3. Suv va yer resurslarini boshqarishni takomillashtirish. Sug‘oriladigan yerlarning sho‘rlanishini oldini olish uchun zamonaviy sug‘orish tizimlarini

(tomchilatib sug'orish) joriy etish, Qoradaryo va Andijon suv omborlarini monitoring qilish. Yakunda suv sarfini 20% ga kamaytirish, yer degradatsiyasini 10% ga pasaytirish, biodiversiyani saqlash.

4. Migratsiya va demografik siyosatni tartibga solish. Qishloqdan shaharga migratsiyani tartibga solish uchun PF-5623 Farmoni doirasida yer xususiyashtirishni kengaytirish va ish o'rinlari yaratish. Geourbanistik nazariyalarga asoslanib, demografik yuklamani taqsimlash. Bu ishlar natijasida migratsiya oqimini 10–15% ga kamaytirish, shahar aholisi yuklamasini muvozanatlash.

5. Ilmiy-tadqiqot va monitoring tizimini rivojlantirish. Andijon viloyatida urbanizatsiya va ekologiya bo'yicha ilmiy markaz yaratish va markazda ekologik muammolarni erta aniqlash, siyosiy qarorlar uchun ilmiy asos yaratish.

Ushbu takliflarning umumiy amalga oshirilishi Andijon viloyatini 2030-yilgacha ekologik toza va barqaror hududga aylantiradi, globalizatsiya afzalliklaridan foydalanishni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5623-sonli Farmoni. 10.01.2019. <http://lex.uz>
2. O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari. <https://stat.uz>
3. Лаппо Г.М. География городов.- М., 1997.
4. Payzullayev M.A. ECONOMIC GEOGRAPHICAL ASPECTS OF THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF ANDIJAN AGGLOMERATION // Экономика и социум (электронное научно-практическое периодическое международное издание). – Саратов (Россия). Выпуск №12 (115)-2, 2023. ISSN: 2225-1545 (11.00.00; №11). -С. 291-293.
5. Payzullayev M.A. Urbanization processes of the Fergana Valley // Экономика и социум (электронное научно-практическое периодическое международное издание). – Саратов (Россия). Выпуск №6 (97)-1, 2022. ISSN: 2225-1545 (11.00.00; №11). -С.1176-1180.
6. Персик Э.Н. География городов. (Геоурбанистика). -М.1991.
7. Таштаева С.К. Ўзбекистонда шаҳар агломерацияларининг шаклланиш ва ривожланиш хусусиятлари. (г.ф.н илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси) Тошкент, 2009.